

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH
TIZIMINI MODELLASHTIRISHNING USLUBIY YONDASHUVLARI**

A.B. Nizamov

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, professor, i.f.d., Buxoro sh. buhibkol@mail.ru

Sh.K. G'afurova

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, tayanch-doktorant, Buxoro sh.,
shaxlo_gafurova@mail.ru*

**МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К МОДЕЛИРОВАНИЮ СИСТЕМЫ
УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗАХ**

A.B. Низамов

*Бухарский инженерно-технологический институт,
проф., д.э.н., г. Бухара, buhibkol@mail.ru*

Ш.К. Гафурова

*Бухарский инженерно-технологический институт,
докторант, г. Бухара, shaxlo_gafurova@mail.ru*

**METHODOLOGICAL APPROACHES TO MODELING THE EDUCATION
QUALITY MANAGEMENT SYSTEM IN UNIVERSITIES**

A.B. Nizamov

*Bukhara Engineering and Technology Institute,
prof., doctor of economic sciences, Bukhara, buhibkol@mail.ru*

Sh.K. Gafurova

*Bukhara Engineering and Technology Institute,
doctoral student, Bukhara, shaxlo_gafurova@mail.ru*

So'nggi yillarda oliy ta'lim to'g'risidagi tasavvur zamonaviy bozorda tegishli xizmatlarni taqdim etadigan, o'z iste'molchisiga ega bo'lgan, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqaradigan soha sifatida shakllanayotganligi sababli, ta'limdagi sifat kategoriyasi tobora ko'proq iqtisodiy tus olmoqda. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun ta'lim muassasasi uning sifatini talab darajasida saqlab turishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim sifati muammosi, shubhasiz, milliy ta'lim siyosatining muhim qismidir, shuning uchun har bir OTMda ta'lim sifatini boshqarishning umumiy muammosi bilan bog'liq holda o'ziga xos sifat modeli bo'lishi kerak.

Shu munosabat bilan menejment nazariyasi va amaliyotida bu sohada ishlab chiqilgan turli xil boshqaruv yondashuvlarini tahlil qilib o'tamiz.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI


22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

Ilmiy adabiyotlarda sifat menejmentida jarayonli yondashuv o‘zaro bog‘liq boshqaruv funksiyalarining uzluksiz qatori sifatida ko‘rib chiqiladi. Tizimli yondashuvda tashkilot o‘zgaruvchan tashqi muhitda turli maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan o‘zaro bog‘liq elementlar (odamlar, tuzilma, vazifalar, texnologiyalar) to‘plami sifatida qaralsa, vaziyatli yondashuv boshqaruv usullari muayyan vaziyat bilan bog‘liq ravishda belgilanishi kerakligini nazarda tutadi. Sifat ko‘rsatkichlarini matematik va statistik usullardan foydalangan holda miqdoriy baholashga asoslangan yondashuv miqdoriy (matematik) hisoblanadi. Hatti-harakat yondashuvining asosiy maqsadi xodimlarga o‘z imkoniyatlari va ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga yordam berish orqali ish samaradorligini oshirishdir.

Ushbu yondashuvlardan tashqari, ta'lim sifatini tadqiqot etish vazifalari tizimli-tuzilmaviy, maqsadli dasturlash, optimallashtirish orqali ham hal qilinadi.

Sanab o‘tilgan yondashuvlarning har biri muhim ijobiy tomonlarga ega bo‘lgan ilmiy bilim vositalari bo‘lib, o‘zaro bog‘liqligi bilan bir-birini to‘ldiradi. Ta'kidlash joizki, yuqorida aytib o‘tilgan yondashuvlar umumiy va asosan ishlab chiqarishni boshqarishga qaratilgan. Shuning uchun, ta'lim sohasiga nisbatan, ular yangi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishlari kerak. Ta'lim muassasalari faoliyat ko‘rsatadigan va rivojlanadigan muhit, shuningdek, ma'lum bir millat madaniyatiga xos bo‘lgan qadriyatlarni hisobga olish kerak, deb hisoblaymiz. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, olimlar mavjud nazariy va uslubiy yondashuvlarni ta'lim sohasidagi boshqaruvga o‘tkazishga harakat qilishgan. So‘nggi paytlarda esa, tobora ko‘proq olimlar va amaliyotchi menejerlar alohida yondashuvlarning cheklanganligi va ularni birlashtirish imkoniyatlari to‘g‘risidagi xulosaga kelishgan. Bizning fikrimizcha, yondashuvlarning har qanday sintezi asosida, ular qanday atalmasin, tizimli yondashuv va o‘zini o‘zi tashkil qilish g‘oyasi yotadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, tadqiqotlarimiz natijasida sifatli ta'lim xizmatlari ko‘rsatish va “sifatli universitet” yo‘lini tanlagan milliy OTMlar uchun **TQM** tamoyillari va uslublariga asoslangan sifat menejmenti tizimiga faoliyatni transformasiyalash modelini taklif etamiz (1-rasm).



1-rasm. OTMlarni sifat menejmenti (TQM) tizimiga transformasiyalash modeli

Ushbu model to'rt bosqichli harakatlardan iborat: dastlabki ma'lumotlar, OTMni transformasiyaga tayyorlash, OTMda sifat menejmenti muhitini shakllantirish, mexanizmni shakllantirish va amalga oshirish. Dastlabki harakatlar uch blokka ajratilgan bo'lib, birinchi blokda sifat menejmenti tamoyillari va funksiyalari, TQM usullari va vositalarini milliy OTMlar boshqaruv amaliyotida bevosita qo'llashning xususiyatlari o'rganiladi. Ikkinchi blokda OTMlarda sifat menejmenti mexanizmini shakllantirish va amalga oshirishning dastlabki sharoitlari o'rganiladi va omillari aniqlanadi. Uchinchi blokda sifat menejmentining ko'p komponentli tashkil etuvchilari va sub'ektlari aniqlashtiriladi. Ikkinchi bosqich ikki blokdan iborat bo'lib, birinchi blokda OTMda benchmarkingga asoslangan ta'lim sifatini boshqarish diagnostikasi amalga oshiriladi. Ulardan foydalanish jarayonning rivojlanish ma'lumotlarini tizimlashtirish, strukturalash va tahlil qilish, shuningdek, yuqori va o'rta menejrlarning, xodimlar va professor-o'qituvchilarning ushbu jarayonlarda faolligini baholash imkoniyatini beradi. Ushbu metodlarning yana bir afzalligi mavjud holatni ideal holat bilan qiyoslab (benchmarking) tahlil qilishdir. Olingan natijalarni grafik shaklda taqdim etish tahlillarni ko'rgazmali va engil qiladi, shuningdek bu metodikalar mavjud muammolarni muntazam ravishda aniqlab borish, echimlarni tezkor topish va to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilishga xizmat qiladi.

Ikkinchi blok OTMda transformasiyalash mexanizmining bazaviy sharoitlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, unda o'tkazilgan diagnostika asosida OTM missiyasini sifat menejmentiga muvofiq qayta ko'rib chiqish, sifat menejmentini rivojlantirish bo'yicha maqsadlarni belgilash, strategiya va dasturlarni ishlab chiqish, rejalarni amalga oshiruvchi mas'ullarni aniqlashtirish, sifat menejmentiga oid me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash, rag'batlantirish va motivasiyani kuchaytirish mexanizmlarini yaratish, sifat menejmentiga muvofiq OTM strukturasi yangilash, qo'shimcha bo'linmalar tuzish, mavjudlarining vakolatlarini kengaytirish, sifat infratuzilmasini shakllantirish ishlari amalga oshiriladi.

Sifat menejmentiga transformasiyalashda OTMning yaxlit sifat ekotizimini, TQM tamoyillariga asoslangan madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Sifat bu jamoaning har bir a'zosi birgalikda erishiladigan natija ekanligini barcha anglab olishi, his etishi, amalda ko'rsatishi lozim. OTM ta'lim sifatini boshqarishning barcha etti (boshqarish, ta'lim, ilmiy, moliyaviy, ijtimoiy va xo'jalik) tizimlarida va ulardagi har bir jarayonda ishtirok etuvchilar o'z faoliyatini pirovard natija bilan bog'lagan holda tashkil etishi va baholashi darajasiga erishish uchun TQM sifat madaniyatini ommalashtirish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda yuqori malakali pedagog xodimlarni tarbiyalash, malakasini oshirish, tanlash va rahbar kadrlar zahirasini shakllantirish tizimini takomillashtirish zarur.

Transformasiyalash bilan bog'liq o'zgarishlarni mustaqil amalga oshira bilish bilan OTMning moliyaviy barqarorligi bog'liq bo'lib, o'zini o'zi moliyalashtirish chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Bu sohada zamonaviy marketing tadqiqotlaridan,

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

reklama tashfiqot (a'rich) vositalaridan keng foydalangan holda ta'lim xizmati ko'rsatish ko'lamini va geografiasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy mustaqillik nafaqat ta'lim xizmatlari ko'rsatish, balki ilmiy va innovasion-tadbirkorlik, tijoratlashtirish faoliyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratishni, mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi. Shu bilan birga ilmiy natijalarni ta'lim dasturlariga kiritish, o'quv mashg'ulotlarida ulardan foydalanish, talabalarni ilmiy va innovasion-tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish ta'lim sifatini oshirishning yana bir omili hisoblanadi.

Sifat menejmenti yo'lini tanlagan OTM hudud ijtimoiy-iqtisodiy hayotining faol ishtirokchisiga aylanishi, uni rivojlantirishda yangi ilg'or g'oyalarning tashabbuskori, tayyorlov yo'nalishlarini ishlab chiqarish tarmoqlarining ehtiyojlariga moslashtirishi va ilmiy tadqiqotlarni korxonalarining real muammolari echimini topishga qaratishi uning shu hududdagi mavqe'ini oshirishga xizmat qiladi.

Sifat menejmentiga transformasiyalashda OTMda yaratilishi kerak bo'lgan yana bir sharoit xorijiy hamkorlikni rivojlantirish bo'lib, bunda OTMlar bilan integrasiya asosida ta'lim standartlarini ishlab chiqish, hamkorlikdagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, o'zaro professor-o'qituvchi va talaba almashuvini yo'lga qo'yish, qo'shma ta'lim dasturlari sonini va geografiasini oshirish, bakalavriat tayyorlov yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini bosqichma-bosqich xalqaro akkreditasiyadan o'tkazish va OTMlar xalqaro reytingida munosib ishtirok etish uchun etarli darajada tayyorgarlik bo'lishi, faoliyatni ushbu sohalarga qaratgan holda tashkil qilish tajribasi bo'lishi kerak.

OTMda sifat menejmenti muhitini shakllantirish transformasiyalashning asosiy bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda uch blokka ajratilgan holda vazifalar amalga oshiriladi. Birinchi blokda sifat menejmentining huquqiy, me'yoriy va boshqa hujjatlar, axborot va kommunikasiya ta'minoti va sifatli ta'lim sohalari tashkil etuvchilari asosida me'yoriy-huquqiy va axborot muhiti hamda o'quv-ilmiy ijodkorlik, innovasion muhit shakllantiriladi.

OTM sifat menejmenti tizimi doirasida hujjatlarning quyidagi turlari ishlab chiqiladi:

1. OTMning missiyasi, sifat sohasidagi siyosat, sifat sohasidagi maqsadlar va sifat bo'yicha yo'riqnoma.
2. Hujjatlashtirilgan va tasdiqlangan sifat menejmenti tizimi muolajalari.
3. Jarayonlarni samarali rejalashtirish, amalga oshirish va boshqarishni ta'minlaydigan hujjatlar, shu jumladan OTMning tashkiliy tuzilmasi, amaldagi Ustavi, shtatlar jadvali, bo'linmalar to'g'risidagi Nizom, lavozim vazifalari, uslubiy ko'rsatmalar, ayrim turdagi ishlarni tashkil etish to'g'risidagi Nizom, o'quv reja va dasturlar va hokazo.
4. Bajarilgan ishlar yoki erishilgan natijalarning ob'ektiv dalillarini o'z ichiga olgan hujjatlar, jumladan, jarayonlar bo'yicha tavsiflar.
5. Normativ-huquqiy hujjatlar.

Sifat menejmenti muhitini shakllantirishning ikkinchi bloki asosida innovasion, investision, tadbirkorlik va ijtimoiy himoya tashkil etuvchilari yotgan bo'lib, ular OTMda investision muhit va o'zini o'zi moliyalashtirish muhitini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday muhitni shakllantirishning asosiy g'oyasi zamonaviy OTMlarni bozor sub'ekti

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

sifatida, bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga asoslangan holda o'z faoliyatini yo'lga qo'yishga, xodimlarning dunyoqarashini o'zgartirishga va boqimandachilik kayfiyatini bartaraf etishga qaratilgan. Lekin shu bilan birga investision faollikni rivojlantirish, ham o'quv, ham ilmiy faoliyatni daromad keltiruvchi manbaga aylantirish, istiqboli bo'lmagan tayyorlov yo'nalishlari va mutaxassisliklardan voz kechish, mehnat bozori kon'yunkturasi asosida to'lov shartnoma qiymatini belgilash, professor-o'qituvchilar va talabalarni o'z ta'lim va ilmiy sohasida innovasion –tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, resurlardan oqilona va tejamkor foydalanish orqali o'qituvchilar, xodimlar va talabalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish taqozo etiladi.

Sifat menejmentining ishlab chiqarish va xorijiy OTMlar bilan integrasion tashkil etuvchilari uchinchi blokda mujassamlangan bo'lib, ta'lim-fan-ishlab chiqarish integrasiyasi muhiti va xorijiy hamkorlik muhitini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta'lim sifati menejmentida ilmiy va innovasion faoliyatning ta'lim jarayoni bilan integrasiyasi, OTMning iqtisodiyot tarmoqlari korxonalar va ish beruvchilar bilan integrasiya, jahon ta'lim makoniga integrasiya, xalqaro ilmiy va ta'lim loyihalarida ishtirok etishni ko'zda tutadi. Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim tuzilmalarining raqobatbardoshligini oshirishda ta'lim, fan, ishlab chiqarish, oxirgi vaqtlarda ko'p e'tirof etilayotgan, madaniyat sohasida ham integrasiya jarayonlarini faollashtirish muhim ahamiyatga ega. Integrasiya jarayonlari muayyan tashkiliy shakllarda (texnoparklar, ilmiy-tadqiqot, o'quv va ishlab chiqarish markazlari va boshqalar) rivojlanadi, shuningdek ish beruvchilarning yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojlarini qondiradi. Bizning fikrimizcha, ta'lim va ishlab chiqarish integrasiyasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modellaridan foydalanish samarali bo'lib, innovasion korxonalar tashkil qilish, dual ta'lim shaklini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu masalada ikki tomonning o'zaro manfaatdorligi bo'lishi shart. Integrasiyaning sifat menejmentida yana bir jihati ta'lim ishlab chiqarishdagi ilg'or texnologiyalarga asoslangan ilgarilovchi xususiyatga ega bo'lishi kerak.

Ta'limning globallashuvi va baynallashuvi sharoitida milliy OTMlar raqobatbardoshligini va sifat muammolari echimini xalqaro ta'lim makonidan ajralgan holda ta'minlash mumkin emas. Bunda, milliy qadriyatlarni saqlagan holda, OTMlarning ta'lim sohasidagi yuqori xalqaro akademik standartlarga, shuningdek ilmiy va innovasion faoliyatga yo'naltirilgan muhitni rivojlantirish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni
2. Teylor, F. U. Prinsipi nauchnogo menedjmenta : per. s angl. // Kontrolling.-1991.- Vip. 1.
3. Fayol, H. General and Industrial Management. - Constance Storrs. Pitman. -London, 1949.
4. Nizamov, A. B., & Gafurova, S. K. (2020). Assessment of factors influencing the quality of education in higher educational institutions. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(6), 1784-1796.
5. Nizamov, A., & Gafurova, S. (2020). Directions for providing the quality of educational services in higher educational institutes. *Rezultati nauchnix issledovaniy v usloviyax pandemii (COVID-19)*, 1(05), 142-147.
6. Gafurova , S. K. (2023). QUALITY MANAGEMENT IN EDUCATION: A SYSTEMATIC APPROACH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(17), 126–129.
7. Gafurova, S. K. (2023). Quality Management In Education: A Systematic Approach. *Educational Research In Universal Sciences*, 2(17), 126-129.
8. G‘afurova, Sh. (2024). OLIY TA'LIM SOHASIDA SIFAT MENEJMENTI VA UNING XUSUSIYATLARI. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 25(1), 274-281.
9. Gafurova, S. K. (2023). Quality Management In Education: A Systematic Approach. *Educational Research In Universal Sciences*, 2(17 SPECIAL), 126-129.